

# **Termizda harbiylarga 100 ta yangi xonodon kalitlari topshirildi**



Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yillik bayrami arafasida Termiz shahrida harbiylar uchun yangi xonodonlar foydalanishga topshirildi.

Tadbirda viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etib, yig'ilganlarni Vatanimiz mustaqilligining o'ttiz ikki yilligi bilan muborakbod etdi hamda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yangi xonodon kalitlarini tantanali topshirdi. Tadbirda ofitserlar, serjantlar, Mudofaa vazirligi harbiy pensionerlari, nuroniyalar, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari ishtirok etishdi.

Viloyat rahbari tadbir so'ngida nuroniyalar va mutasaddilar bilan harbiylarga topshirilgan yangi xonadonlarda mehmon bo'lishib, yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi.

Mazkur loyihaning umumiy qiymati 9,3 mlrd so'm bo'lib, zamonaviy sharoitlarga ega 100 ta xonadonni o'z ichiga olgan turar-joylar "Surxon Sanoat qurilish" va "MONOLITH DOM SERVICE" MChJlari tomonidan qurib bitkazilgan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)